



## SHAXS IJTIMOY -PSIXOLOGIK MAQOMIGA OILAVIY MUNOSABATLAR TA'SIRI

**O'rmonov To'lqinjon Kimsanovich**  
*Farg'ona Davlat Universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada shaxs rivojlanishi va uning ijtimoiylashuvi, avvalo, ijtimoiy omillar ta'siri ostida kechishi yoritilgan. Undagi asosiy rol esa oilaga tegishli. Oila shaxslararo munosabatlarning butun boshli majmuasi, er-xotin, ota-onalar va farzandlarning o'zaro harakati sabab bolaning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun eng qulay sharoitni yaratib beradi, unga ma'naviy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, an'analar, xulq namunalari va muloqot usullari tizimini taqdim etadi.*

**Kalit so'zlar.** *Farzand, munosabat, ustoz, shogird, qobiliyat, voris, shaxs, ota, ona, ilm, ma'rifat.*

Shaxs rivojlanishi va uning ijtimoiylashuvi, avvalo, ijtimoiy omillar ta'siri ostida kechadi. Undagi asosiy rol esa oilaga tegishli. Oila shaxslararo munosabatlarning butun boshli majmuasi, er-xotin, ota-onalar va farzandlarning o'zaro harakati sabab bolaning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun eng qulay sharoitni yaratib beradi, unga ma'naviy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, an'analar, xulq namunalari va muloqot usullari tizimini taqdim etadi.

Inson oila ta'sirini butun hayoti davomida his etadi, shuning uchun oilaning tarbiyaviy ta'siri uzluksizligi va davomiyligi bilan tavsiflanadi. Oilaning bolaga nisbatan tarbiyaviy ta'sirining barqarorligi uning o'quv, mehnat, ijtimoiy faolligiga ta'sirida o'z aksini topadi. Mazkur omil nikohning umumiy barqarorligi va mustahkamligi holati bilan chambarchas va ko'p jihatdan bog'liq. Ya'ni, agar oila mustahkam bo'lsa, uning tarbiyaviy muhiti ham barqaror bo'ladi, bunday muhitda kamol topadigan farzand tarbiyasi, xulqi namunali bo'ladi. Demak, psixologik jihatdan oilaviy muhitning qandayligiga qarab ikki shaxs o'rtasidagi nikohning mustahkamligiga baho berish mumkin. Bu oila a'zolari o'rtasida samimiy o'zaro munosabatlarni rivojlantiruvchi yoki aksincha ularning yaxshi kechishiga to'siq bo'luvchi shart-sharoitlardir. Psixologik muhitning yaxshi - qulay yoki yomon - noqulay tiplari farqlanadi. Qulay psixologik muhit zamirida er-xotin dunyoqarashi, fikrlar tarzlari, fe'l-atvorining bir-biriga mos kelishi yotadi. Olimlarning fikricha, oiladagi qulay muhit tushunchasi quyidagi belgilarga asoslanadi: oila a'zolarining birligi (qarashlar, fikrlar, qiziqishlar, ideallar, qadriyatlar yo'nalishining birligi), shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun imkoniyatlarning mavjudligi, oila a'zolarining bir-biriga nisbatan xayrixohligi, talabchanlik, himoyalanganlik hissining mavjudligi, o'zaro ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlar. Qulay psixologik muhitning muhim ko'rsatkichi - bu oila a'zolarining bo'sh vaqtni oila davrasida o'tkazishga intilishi va uydagi majburiyatlarning birgalikda bajarilishidir. Bundan tashqari, bizning sharoitimizda oilaning ochiqligi, mehmondo'stligi, oiladan tashqari ham aloqalarning borligi,



masalan, yor-do'stlar, qo'ni-qo'shnilar, qarindoshlar-urug'lar bilan samimiy munosabatlarning yo'lga qo'yilganligi kabilarni ham oiladagi ijobiy psixologik muhit, deb hisoblash mumkin. Qulay muhitda oilaga aloqador quyida keltirilgan barcha funksiyalar muvaffaqiyatli ado etiladi, deyish mumkin.

- oilaning reproduktiv funksiyasi;
- oilaning ijtimoiy-tarbiyaviy funksiyasi;
- oilaning xo'jalik yuritish funksiyasi;
- oilaning iqtisodiy funksiyasi;
- oilaning ijtimoiy nazorat qilish funksiyasi;
- oila a'zolarining o'z mavqeiga ega bo'lishini ta'minlash funksiyasi;
- oila a'zolarining dam olishini to'g'ri tashkil etish funksiyasi;
- oilaning yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash funksiyasi.

Psixologik-pedagogik manbalarda oilani bola shaxsi shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ko'proq o'rganiladi. Oilaning bolaga asosiy ta'siri ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mehrga asoslanganmi, er-xotin o'rtasida o'zaro xissiy yaqinlik bor yoki yo'qligini bolalar tomonidan idrok etilishiga e'tibor qaratiladi. Barcha psixolog va pedagog olimlar va ular o'tkazgan tadqiqotlar bolaga, uning ta'lim va tarbiyasi uchun eng avvalo ijobiy emotsional munosabat muhiti zarurligi fikrini yoqlyadilar. Chunki, bolalardagi dunyoqarash, xarakterning shakllanishi, qadriyatlarining o'zlashtirilishi, xulq me'yorlari va jamiyat normalarini o'zlashtirish, shakllangan odatlar va namoyon bo'ladigan qobiliyatlar, eng avvalo, ota-ona ta'sirida shakllanadi.

Oilaviy tarbiya jarayonida ota-onaning roli bir xil emasligiga va o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligiga ham olimlar e'tibor qaratganlar. Masalan, onaning farzandga mehri haqida juda ko'p yozilgan, chunki ona va bolaning ijobiy ruhiy va emotsional aloqasi farzand hayotining ilk daqiqalaridanoq muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlabki oylar va yillardagi onadan ayrilish bolaning butun psixik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Pedagoglar va psixologlarning ta'kidlashicha, oiladagi tarbiyaning asosiy jihati ota-ona mehri hisoblanadi, ammo u ota va onada bola bilan o'zaro munosabatlar chog'ida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ona mehrining o'ziga xosligi uning tabiiyligi, shartsizligi, ya'ni, nima uchundir bolani sevish, ardoqlash emas, balki chin dildan, tabiatan yuqtirilgan yuksak mehr tufayli bolaga g'amho'rlik ko'rsatishdadir. Agar ona mehri "Men seni borliging uchun yaxshi ko'raman" formulasi bilan ifodalanishi mumkin bo'lsa, u holda ota mehri (ayniqsa o'g'ilga nisbatan) shartlidir.

G'arb psixologi va faylasufi Erix Frommning fikricha, ota "Men seni shuning uchun yaxshi ko'ramanki, sen mening umidlarimni oqlaysan, negaki sen o'z burchingni bajarayapsan" degan ma'noni ifodalaydi. Ota ta'siri, ana shu tarzda, bolada iroda sifatlarining shakllanishiga yordam beradi, uni yanada uyushqoq, mustaqil, intizomli qiladi. Farzand tug'ilgach, otasi hayotining birinchi kunlaridanoq uning parvarishi jarayonida ishtirok etgan bola ancha kirishimli bo'ladi, notanish kishilardan kamroq qo'rqadi, fobiyalardan xoliroq bo'ladi, deb hisoblashadi. Faol va ustunlikka ega otaning





qo'llab-quvvatlashi va himoyasi ostida bolalar o'zlariga nisbatan ancha ishonuvchan bo'lib voyaga yetadilar. E. Frommning ta'kidlashicha, ota bolaga butun hayoti davomida kerak bo'ladi, ammo u ota mehri, hukmronligi va rahbarligiga olti yoshdan boshlab juda qattiq ehtiyoj sezadi. O. Abdusattorovanning ta'kidlashicha, "To'liq oila muhitida hamkorlik va sherikchilikka asoslangan er-xotin munosabatlaridagi erkakning o'rne va roli o'g'il bolada erkak jinsiga oid identifikatsion sifatlarning namoyon bo'lishi va shakllanishiga maqbul shart-sharoit sifatida rol o'ynashi mumkin". Demak, otaning ta'siri o'g'ilga, onaning ta'siri bevosita qizga bo'lishi fakti tadqiqotlarda isbotlangan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, ma'lumki, oila shaxsning ijtimoiy muhit ta'sirlarini o'zida mujassam etish, bu ta'sir natijasida shakllanadigan insoniy sifatlarning namoyon bo'lishi uchun eng qulay, maqbul ijtimoiy institutlardan hisoblanadi. Shaxsda biz kundalik hayotda ko'radigan sifatlarning aksariyati aynan oila muhitida, oiladagi shaxslararo munosabatlar tizimida shakllanadi, kamol topadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik-T:Fan va texnologiya. 2008.152b.
2. Shoumarov G.B. tahriri ostida. Oila psixologiyasi.T.: Sharq, 2009. -272 b.
3. Fayzieva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. - T.III apr 2007.